JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 8 - fevral 39-3-47-Q/24 Do‘stlik tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida

O'zbekistan Respublikasining “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonunining 17-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizomga (keyingi o'rinlarda - Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko'rigini tashkil qilish maqsadida, Do'stlik tuman Ichki ishlar bo'limining 2024-yil 3-yanvardagi 28/5-sonli xatini inobatga olib, O'zbekistan Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Do'stlik tuman Ichki ishlar bo'limining 2024-yil 3-yanvardagi 28/5-sonli xatini inobatga olinsin, hamda tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi **1-ilovaga**, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

- tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchining o'rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish chun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

-ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan yuridik shaxslarga tegishlitransport vositalari mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko’rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

-ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo'lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq

bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

-tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

-navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazishning ilgari o'rnatilgan muddatlaridan qat'iy nazar, ularni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o'rinlarda - DYHXX) organlarida ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) vaqtida (birinchi marta ro'yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalarining texnik ko'rigi:

-birinchi marta - 1-mart - 30-iyunda;

-ikkinchi marta - 1-sentyabr - 31-oktyabrda o'tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko'rigi 1-yanvar - 31-dekabrda o'tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tuman komissiyasi rahbariga - transport vositalarining texnik ko'rikdan o'tkazishda:

-transport vositasini ro'yhatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

-transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

-maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

-gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik

sub’ektlari tomonidan texnik ko’rikdan o’tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko’rikdan o’tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o’z vaqtida texnik ko’rikdan o’tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o’tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi 125-sonli qarorining 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo’linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko’rikdan o’tkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 28-dekabrdagi “2023-yilda Do'stlik tumanidagi transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o’tkazish to'g'risida”gi 248-3-47-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari B.Qoraevga tuman hududida mavjud transport vositalarining yillik majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish ommaviy axborot vositalari va "Do'stlik hayoti" gazetasida keng yoritib borilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga, ijrosini tashkil etish tuman Ichki ishlar bo’limi boshlig'i Sh.Qosimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2024-yil 8-fevraldagi
39-3-47-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida texnik ko‘rik o‘tkazish bo‘yicha Komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi:

1. Z.Anarboev	-Tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i

Komissiya raisining o‘rinbosari:

2. F.Alimov	-Tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi katta inspektori

Komissiya a’zolari:

3. O.Pulatov	-«Jahongir Kamoltrans avto» XF rahbari
4. K.Zavqiev	-«Tohirbek Servis» MChJ ishlab chiqarish texnikasi bo‘limi muhandisi
5. S.Naliev	-«ALI-OIL» KTXF rahbari

Do‘stlik tuman hokimining
2024-yil 8-fevraldagi
39-3-47-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududida 2024-yilda jismoniy va yuridik avtotransport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tumanda mavjud transport vositalarining

J A D V A L I

T/r	Xo‘jalik va tashkilotlar nomi	T/v soni	Texnik ko‘rik o‘tkazish kuni	Texnik ko‘rik o‘tkazish joyi
1	Jahongir-Kamoltrans-avto	18	09.03.2024 y	Viloyat IIB YHXB
2	Trans-Bars MChJ	9	09.03.2024 y	Viloyat IIB YHXB
3	Sherzod-Mebelь MChJ	1	09.03.2024 y	Viloyat IIB YHXB
4	Tohirbek-Servis MChJ	14	12.03. 2024 y	Viloyat IIB YHXB
5	«Xumo tinchlik trans» MChJ	28	12.03. 2024 y	Viloyat IIB YHXB
6	Uchtom irrigatsiya tizimi	2	09.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
7	Tuman hokimligi	8	18.03. 2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
8	Suv oqava korxonasi	1	20.03. 2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
9	Tuman Obodonlashtirish	5	24.03. 2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
10	Tuman DSENM	1	26.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
11	Savdogar bank	1	28.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
12	Do‘stlik o‘quv sport texnika	2	28.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
13	Do‘stlik tuman avto ustoz	2	28.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
14	Bandlikka ko‘maklashish markazi	1	29.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
15	Do‘stlik Fermerlar kengashi	1	29.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
16	Tuman Suv xo‘jaligi bo‘limi	1	29.03.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
17	Tuman YFUK	5	02.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
18	Xalq ta’limi bo‘limi	1	07.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
19	Maktabgacha ta’lim tashkil.	1	07.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
20	EKO GAZ MCHJ	1	10.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
21	Agro bank	1	11.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
22	Xalq bank	1	13.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
23	Paxta tozalash korxonasi	1	14.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
24	Veterenariya bo‘limi	2	14.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
25	Soliq inspektsiyasi	1	27.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
26	Elektr tarmoqlari	2	28.04.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
27	Tuman GAZ	1	01.05.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
28	Do‘stlik tumanida mavjud FX tegishli yengil va yuk avtomobillar	114	14.05.2024 y	«Ali-Oil» KTXF avtogarajida
29	Do‘stlik tumanida mavjud XK va MChJlarga tegishli yengil va yuk avtomobillari	95	17.05. 2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
30	Xorijiy korxona	4	20.05.2024 y	«Toxirbek-Servis» MChJ va «ALI-OIL» KTXF avtogarajida
31	Jami yuridik	323	soat 10-00 dan 12-00 gacha	«Toxirbek-Servis» MChJ avtogarajida
32	Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari jami	6149	Haftaning dushanbadan-juma kunigacha soat 09-00 dan 17-00 gacha	Tadbirkorlik sub’ektlari-yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o’tkaziladi

33	Tumanda mavjud yuridik va jismoniy transport vositalari	6472	

Eslatma: Tuman hududida yuridik tegishli 323 ta, tashkilotlar 44 ta, transport uyushmalarida 70 ta, kichik korxonalar, xususiy firma va MCHJlar, oilaviy korxonalar 95 ta va dehqon fermer xo’jaliklari 114 tani tashkil etadi.

Jismoniy shaxslarga tegishli 6149 ta tashkil qilib M1 toifadagi ishlab chiqarilganligi 10 yilgacha bo’lgan 2188 ta yengil turdagi transport vositalari texnik ko’rikdan o’tmaydi, 2663 ta M1 toifadagi transport vositalari tadbirkorlik sub’ektlari diagnostiga markazida o’tishlari belgilangan, 1298 ta yuk transport vositalari tuman IIB JXX YHB texnik ko’rik bazasidan o’tishlari belgilangan.

323 ta yuridik shaxslarga tegishli transport vositalarining rahbarlari belgilangan jadval asosida transport vositalarni tuman IIB YHXBga ro’yxat bo’yicha taqdim etishlari uchun shaxsan mas’uldirlar.